

15 Mavzu: Demografik jarayonlarni tadqiq etishning ahamiyati

Reja:

1. XVI-XIX asrlarda demografik jarayonlar
2. XIX-XX asrlarda demografik jarayonlarni o'rganish
3. FTI davrida demografik jarayonlarni o'rganish

Tayanch iboralar: Geografiya, demografik jarayonlar, buyuk geografik kashfiyotlar, aholi takror barpo bo'lishi, tug'ilish, o'lim, qiyosiy demografiya, statistika, xalq, demografik revolyutsiya nazariyasi

XVI-XIX asrlarda demografik jarayonlar. Jamiyat taraqqiyoti tarixida sayyoramiz va uning turli hududlarida aholi soni, tarkibi, demografik jarayonlar, jumladan, aholi takror barpo bo'lishiga oid ma'lumotlar qadimgi davrlardan boshlab mavjuddir.

I asrda Strabon tomonidan 17 jilddan iborat "Geografiya" kitobi yozilgan bo'lib, unda tabiat, xo'jaliklar, etnografiya va aholiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. O'rta asrlarga oid manbalarda ham xo'jaliklar, askarlar soni, urushlarda ochlik va turli epidemiyalardan o'lganlar haqida ma'lumotlar mavjud.

Demografik jarayonlarni o'rganishni rivojlanishida XVI asrdan XIX asrning boshlariga qadar bo'lgan davr alohida ahamiyatga egadir. Chunki bu davrda demografik bilimlar paydo bo'lishi uchun sharoit yaratildi. Aholi harakatida katta ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz beradi.

XVI-XVIII asrlarda jahon mamlakatlarida yirik aholi migratsiyasi (ko'chishi) kuzatiladi. Ushbu davrda dunyoning turli hududlaridan aholi Amerika Ko'shma Shtatlariga ko'chib kela boshladi. Boshqacha qilib aytganda, aholining migratsiyasi Shimoliy Amerika tomon yo'nalgan edi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, 1610-1800 yillarda AQSh aholisi 210 ming kishidan 5,3 million kishiga etdi. Salkam ikki asr davomida AQSh aholisi 25 barobar ko'paydi. Aholining shunday tez o'sishi asosan migratsiya hisobiga sodir bo'ldi. Aholining tabiiy ko'payishi esa juda sekin borgan. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, o'rta asrlarda dunyoning barcha hududlarida, jumladan AQShda ham tug'ilish va o'lim

jarayonlari yuqoridarajada bo'lgan. XVIII asrning oxirlariga kelib qator Evropa davlatlarida o'lim hollari bir muncha kamayib aholining tabiiy o'sishi, ya'ni tug'ilish hisobiga ko'payib borishi kuzatiladi. Fan va texnikaning rivojlanishi, aholi sonining tez o'sib borishi natijasida qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar vujudga keladi. Bu vaziyat aholini atroflicha o'rganishni taqozo etadi. Aholi sonining o'sishi va uning oqibatlari olimlar e'tiborini tortadi. Ana shunday olimlardan biri siyosatshunos va tarixchi N. Makiavelli (1469-1527) bo'lib, uning asarlarida siyosat, iqtisod va aholi masalalariga keng e'tibor berilgan. N. Makiavelli fikricha, aholi ko'payishi davlatning qudratli bo'lishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Lekin aholi ortiqchaligi ham o'z o'rnida qator salbiy oqibatlarga olib keladi.

XVI asrda (1530-1596) frantsuz siyosiy yozuvchisi J. Boden tomonidan ham demografik bilimlar birmuncha rivojlantirilgan. 1577 yili J. Bodenning Angliyada "Respublikaning olti kitobi" nomli asari nashr etilib, uning alohida bobida aholi va uning daromadi statistikasini muntazam hisoblab borish har qanday davlat uchun zarurligi qayd etilgan.

J. Bodenning zamondoshi italiyalik siyosiy yozuvchi D. Botero ham o'z asarlarida aholi statistikasiga alohida e'tibor qaratadi. U aholi harakati haqida birinchilardan bo'lib fikr yuritgan olim hisoblanadi. D. Botero XVI asrda yashab, tadqiqotlar olib borgan bo'lsada, uning ijodi XX asrda rossiyalik olimlar tomonidan juda yuqori baholanadi. Ular D. Boteroni aholi nazariyasining asoschilari sifatida tan olishgan. D. Botero aholini juda tez ko'payib borish xususiyatini ta'kidlab, uni to'xtatishda turli harakatlar, ochlik, epidemiya va urushlarni omil sifatida ko'rsatadi.

Umuman, XVI-XVII asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar, xalqaro savdoning rivojlanishi, iqtisodiy raqobat muhitida turmush tarzining shakllanishi natijasida turli davlatlar, ularning aholisi, urf-odatlariga qiziqish kuchayadi. Ular haqida ma'lumotlar asta-sekin to'planib boradi va bu ma'lumotlar ba'zan aniq va ba'zan noaniq betartib holda bo'lsa ham, tarixchi, siyosatshunos olimlar, savdogarlar asarlarida o'z aksini topa boshlaydi. Bir so'z bilan aytganda, aholi va

uning ko'payib borishiga oid statistik ma'lumotlar va demografik bilimlar shakllana boshlaydi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlarida aholi, xo'jaliklar va davlatlarga oid statistik ma'lumotlar geografiyasi birmuncha kengaya boradi. Bu davrda aholining jamiyat rivojlanishidagi o'rniga e'tibor kuchayadi. Davlatlar haqida statistik ma'lumotlar to'plashga qiziqish ortib boradi. Ayniqsa, Germaniyada davlatlarning iqtisodiy holati, yodgorliklari, obidalari haqida statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil etish va shu davlatlar haqida asarlar yaratish rivojlana boradi. Hatto nemis olimi G. Konring 1660 yildan Gelmshtedte (Braunshveyg) universitetida "Davlatshunoslik" fanidan ma'ruzalar o'qiy boshlaydi. Ushbu ma'ruzalarga qiziqish nihoyatda kuchayib, Frantsiya, Shveysariyadan ham tinglovchilar keladi. G. Konringni davlatshunoslikka bag'ishlangan asarlari chop etilgan bo'lib ularda asosiy e'tibor davlat aholisiga, davlatni boshqarish tamoyillariga, davlat tuzumi va boshqarish usuliga e'tibor berilgan.

Germaniyalik olimlardan I. Yusti (1705-1771), Ya. Bilfeld (1717-1770), I. Zokkenfelslar ham aholi davlatning qudrati, uni o'rganishda aholini soniga emas, balki sifatiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydilar.

Aholi takror barpo bo'lishdagi asosiy jarayonlar tug'ilish va o'limni o'rganishda XVII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan, ingliz olimi D. Graunt tadqiqotlari alohida ahamiyatga molikdir. D. Graunt London shahrida aholi o'limi haqidagi 80 yillik statistik ma'lumotlarni o'rganib chiqib, 1662 yilda 90 betdan iborat "O'lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatishlar natijalari ko'rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, aholi o'sishi va boshqa o'zgarishlar xususida London fuqarosi Djon Grauntning asari" kitobini yozdi. Muallif statistik kuzatish asosida aholining o'lim holati va o'limning yosh guruhlari bo'yicha alohida o'rgangan, hamda o'lim jadvalini ishlab chiqqan. Tug'ilishning qishloq va shahardagi farqlari, aholi migratsiyasini ham tahlil etgan. Dj. Graunt tadqiqotlari aholishunoslar tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda.

XVIII – XIX asrlarda Frantsiyada ham aholini o'rganish borasida tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda aholi takror barpo bo'lishi jarayonlari ham o'rganilgan. 1855 yilda Parijda A. Giyyarning “Inson statistika elementlari yoki qiyosiy demografiya”, 1881 yilda Jan Bertilon tomonidan yozilgan “Frantsiya aholisi xarakterining statistikasi” nomli asarlari aholini statistik o'rganishga bag'ishlanadi.

Aholi soni va takror barpo bo'lish jarayonlarini o'rganishda Rossiyada o'tkazilgan tadqiqotlar ham nazariy, ham metodologik ahamiyatiga egadir. XVIII asrning ikkinchi yarmida M.V. Lomonosov tomonidan “Rossiya xalqining saqlanib qolishi va ko'payishi” nomli asar yoziladi. Mazkur izlanish noyob va o'ziga hos bo'lib, aholishunoslik muammolarni yorituvchi birinchi rus asaridir. Lekin mazkur ish faqatgina yuz yildan so'ng nashr etildi. Chunki XVIII asrda “Siyosiy fan”larning rivojlanishiga mamlakat rahbarlari juda katta gumon va ehtiyotkorlik bilan qarar edi. Bu davrda Rossiyada soliq topshiruvchi aholining reviziya hisobidan o'tkazish, aholini cherkov, ma'muriy birikmalar, politsiya tomonidan hisobga olish va boshqa mamlakatlar aholisiga doir ma'lumotlar sir saqlanar edi. Hatto “statistika” so'zining ishlatilishi ham man etilgan edi.

XIX-XX asrlarda demografik jarayonlarni o'rganish. XIX asrda statistika davlatshunoslik bilan shug'ullana boshladi va 1804-1805 yillarda rasmiy ravishda universitet va akademiyalarda statistikafan sifatida o'qitiladigan bo'ldi. Shu bois fanga tegishli bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish uchun keng imkoniyat yaratilgan. Bu o'zgarishlar aholishunoslikningrivojlanishiga sabab bo'ldi. 1806 – 1808 yillarda “Statistika” jurnali chop etildi. U birinchi rus gumanitar oynomalaridan bo'lib, Peterburgdagi Fanlar akademiyasi qoshida K.F. German 1767 – 1833 tomonidan nashr qilinardi. Oynomaning 4 ta kitobi mavjud bo'lib, har birida aholishunoslik bo'yicha ma'lumotlar nashr etilgan. Birinchi maqola K.F. Germanga (1755-1815) tegishli edi. “Rossiyada yashovchilarning soni xususida” deb nomlangan mazkur izlanish “Xalq jadvallari”, ya'ni Rossiya aholisini ro'yxatga olish mavzusiga bag'ishlangan.

Bundan tashqari, jurnallarda bir qancha guberniyalardagi aholi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Maqolalar ichida “Buyuk Pyotr hukmronligining so'nggi yillardagi Rossiyadagi aholi soni va bo'linishi xususida”, deb nomlanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar muallifi Fanlar Akademiyasi olimi, tarixchi A.-X. Lerberg (1770-1818) qalamiga mansubdir. Olim o'z izlanishlarida har xil usulda soliq topshiruvchilar ro'yxatlarida ko'rsatilgan aholi sonini aniqlashga harakat qilgan. Bu maqola – tarixiy demografik tadqiqotlar borasidagi dastlabki ilmiy izlanishlardan hisoblanadi. Shunisi ham e'tiborliki, 1806 yilda chiqqan “Statistika” jurnalining birinchi sonida ilk bor “aholishunoslik” so'zi uchraydi. Ungacha rus tilida “xalq”, “aholi” kabi so'zlar ishlatilar edi. “aholishunoslik” tushunchasidan faqat ilmiy tilda foydalanilar edi. Aholishunoslik bo'yicha bir qator ilmiy asarlarni ham ko'rsatish mumkin. Masalan, K.F. Germanning “Aholishunoslik haqida” deb nomlangan ilmiy asarida Rossiya aholisi bo'yicha statistik tadqiqotlar natijalari berilgan. Muallif o'z asarida ko'plab ma'lumotlar, jadvallar keltirgan, xususan aholining o'lim darajasi haqidagi jadval Rossiyada ilk bor qo'llaniladi. 1811 yilda Rossiyada vazirlikning statistik mahkamasi tuzildi. Bu mahkama keyinchalik IIBning statistik bo'limiga aylandi.

XIX – XX asrlarga kelib statistika, demografiya va aholi geografiyasi fanlarida aholining takror barpo bo'lishi ilmiy tushuncha sifatida keng qo'llanila boshladi. Aholi takror barpo bo'lishini tug'ilish va o'lim birligi sifatida anglash haqidagi dastlabki urinishlar XVIII asrda Ya. Eyler tomonidan taklif qilingan edi. Aholi takror barpo bo'lishi modeli amerikalik aholishunos A. Lotko tomonidan ishlab chiqildi va bu modeldan hozirga qadar statistik, demografik tadqiqotlarda foydalanib kelinmoqda.

Aholi takror barpo bo'lishini o'rganishda V.I. Bortkevich, R. Beklar olib borgan tadqiqotlar ham ahamiyatlidir. R. Byok aholi takror barpo bo'lishi jarayoni intensivligini o'rganish konstruktsiyasini yaratdi. XX asrning 30 yillarida R. Kuchinskiy, R. Byok g'oyalari asosida aholi takror barpo bo'lishi koeffitsientlaridan foydalandi va uni keng targ'ib etdi. Kuchinskiy aholi takror barpo bo'lishida tug'ilish va o'lim jarayoni ikki yoqlama xususiyatga ega

bo'lganligi va ularni ikki yoqlama yaxlit jarayon sifatida talqin etish zarurligini ko'rsatib berdi.

XX asrning 20-30 yillaridan boshlab "aholining takror barpo bo'lishi" tushunchasi keng tarqaldi. Ushbu jarayonni matematik, demografik va statistik tahlili kengayib bordi. Rossiyada S.A. Novoselskiy, V.V. Paevskiy, A.Ya. Boyarskiylar tomonidan aholi takror barpo bo'lishi statistikasi matematik tahlil etildi..

V.G. Venetsskiy, S.G. Kildishevlar aholi statistikasini matematik uslublar asosida o'rganish bo'yicha yirik tadqiqotlar olib bordilar. Ular yaratgan g'oya va metodologiyadan aholi takror barpo bo'lish parametrlarini o'rganishda keng foydalanilmoqda.

FTI davrida demografik jarayonlarni o'rganish. Demografik jarayonlarni ob'ektiv baholash uchun 1970-1980 yillardagi demografik revolyutsiya jarayoniga e'tibor qaratish lozim. Demografik revolyutsiya nazariyasini dastlab (1934 yil) A.Landri ilgari surdi va keyinchalik bu borada tadqiqotlarining rivojlanishiga asos soldi. So'ngra uning taraqqiyotiga uzoq xorij olimlaridan F.V.Notsteyn (1953); Z.Pavlik (1964, 1979); V.S.Tompson (1942), rus olimlaridan A.G.Vishnevskiy 1973, 1976, 1982; A.Ya.Kvasha (1974); V.Ts.Urlanis (1974); demografik taraqqiyotning zamonaviy kontseptsiyasining shakllanishiga o'zlarining ilmiy xissalarini qo'shdilar. Bu kontseptsiyaga muvofiq, aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning sotsial-iqtisodiy sotsiopsixologik rivojlanishi kabi murakkab omillar majmuasi bilan bog'liq bo'lishini va tizimli bosqichlar asosida rivojlanishini asosladilar.

Demografik revolyutsiya nomi keng tarqalmadi, lekin unga yaqin bo'lgan tushuncha demografik o'tish, keyinchalik bu o'zgarishlarni Amerikalik olimlar K. Devison, D. Kirinom va F. Noutsteynomlar foydalandilar.

Bugungi kunda bu olimlarga yana ikkita asosiy geosiyosiy va sotsial ekologik omillar dolzarbli ahamiyat kasb etmoqda. BMT ekspertlarining qarashlariga ko'ra, demografik o'tish davrini 4 ta fazaga ajratishi mumkin. Avvalo o'lim koeffitsienti tug'ilish koeffitsientiga nisbatan tez tushib ketadi. Natijada, tabiiy o'sish koeffitsienti

toki maksimal darajaga etguncha o'sadi. Keyin tug'ilish koeffitsienti o'lim koeffitsientiga nisbatan tezroq pasayadi. Bu jarayon o'lim koeffitsienti minimal darajaga etguncha davom etadi. Keyin tug'ilish koeffitsienti sekin asta pasaya boradi. Bunda o'lim koeffitsienti aksincha ko'tariladi va nihoyat tug'ilish qayta barpo bo'lish darajasigacha pasayadi.

Bunda tug'ilish koeffitsienti oxirgi statsionar darajaga yaqinlashib qoladi. Shunda o'lim koeffitsienti bir necha marta oshishi bilan xarakterlanadi. Bu kontseptsiya AQSh va Evropa davlatlari ilg'or demografik munosabatlari umumiy qonuniyatlari asosida paydo bo'ldi. Ayniqsa, II-jahon urushidan keyingi demografik jarayonlardagi o'zgarishlar mazkur kontseptsiyani tasdiqladi. Uning tasdiqlanishi rivojlanayotgan davlatlardagi demografik jarayonlarni boshqarishda qo'l keldi.

M.S.Betno'y (1972) ning ta'kidlashicha, bunda aholining o'rtacha umr ko'rishi muhim o'rin tutgani holda, tug'ilish shu darajada kamayadiki, natijada aholining umumiy o'lim koeffitsienti aholi tug'ilish koeffitsientining o'sishiga sabab bo'ladi. Umumiy holatda aholi soni kamayadi. Agar ko'rsatilgan demografik vaziyatda o'zgarish yuzaga kelsa, aholining ko'payishiga boshqa omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jumladan, 1990 yillardankeyin Rossiya aholisining qayta barpo bo'lishida shunday o'zgarish sodir bo'ldi.

Shunday qilib, A.Landri (1934) tomonidan kiritilgan «demografik inqilob» tushunchasi hozirgi paytda aholi qayta barpo bo'lishining samarali harakati sifatida izohlanadi. Bu yondashuv A.G.Vishnevskiyning 1976 hamda 1982 yillardagi monografiyalarida keng yoritilgan bo'lib, unda aholi qayta barpo bo'lishi 3 ta asosiy tarixiy tipga ajratiladi: arxetip, an'anaviy va zamonaviy tiplar. Unga ko'ra, bir tipdan ikkinchisiga o'tish inqilobiy bosqich sifatida izohlanadi.

Aholining takror barpo bo'lishi haqidagi prognozlar o'tgan asrning 80-yillarida ko'p variantli tus oldi. Shulardan bevosita hozirgi Markaziy Osiyo mamlakatlarihaqidagi tadqiqotlar D.Veresov ishlaridan o'rin egallagan. Uning prognozlari to'rtta vaziyatni e'tiborga olgan holda amalga oshirilgan:

Birinchidan, o'sha davrda Sobiq Ittifoq tarkibidagi musulmon respublikalaridagi tug'ilish koeffitsienti boshqa mintaqalardan farq qilishga e'tibor qaratilgan. Biroq, bu

prognozlar biologik xarakter kasb etgani holda respublikalararo migratsiyani hisobga olmagan. Unda barcha ittifoqdagi boshqa respublikalarga xos tug'ilish koeffitsientlarining pasayishi musulmon respublikalarida kuzatilmaganligini aholining qayta barpo bo'lishining oddiy rejimi XX asr oxiriga qadar davom etishi prognoz qilinadi. Bunda muallif (D.Veresev) kelgusida bu mamlakatlarning birmuncha islomlashuvini va reproduktiv targ'ibotlar o'zini oqlamasligini e'tirof etgan. Natijada bu kabi ob'ektiv demografik omillar demografik bosqichlarining birdan ikkinchisiga o'tishiga to'sqinlik qilishini e'tirof etgan. Boshqa tadqiqotchilar (E.Andreev, S.Perechkov 1975; P.Vensan, 1945) aholining takror barpo bo'lishiga iqtisodiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatishini ya'ni aholining birlamchi dehqonchilik ishlaridan sanoat ishlab chiqarishga o'tishi jamoat ishlariga ko'plab ayollarning jalb etilishi tug'ilishning kamayishiga sabab bo'lishini e'tirof etishgan.

Ikkinchidan, D.Veresev aholining takror barpo bo'lishida tashqi migratsiyani e'tiborga olmaganligini tadqiqotlarining eng muhim kamchiligi sifatida e'tirof etadi. Shuningdek, T.Ivanov va I.Kalinyuk (1979) larning tadqiqot ishlarida ham migratsiyaning aholitakror barpo bo'lishiga ta'siri ifoda etilmagan. D.Veresev sovet hukumatining migratsiyani boshqarishdagi siyosatining mantiqsizligini o'z davrida qayd etdi (1987). U iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun emigratsion siyosatni tashqi kuchlar bosimida idora etishni qoralagan.

Uchinchidan, D.Veresev prognozi aholining o'rtacha umr ko'rishi qisqartirilgan variantning qo'llanganligini oldingi tadqiqotchilar prognozlaridan farqli jihati sifatida ajratib ko'rsatadi. U bu ko'rsatkichning davriy tebranishi prognoz ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir etmasligini ta'kidlagan.

To'rtinchidan, oldingi tadqiqotlarda ham, D.Veresev prognozlarida ham aholining takror barpo bo'lishiga fojeali omillar ta'siri e'tiborga olinmagan. Biroq, katta masshtabda Chernobil fojeasi singari fojea yuz bermagan bo'lsada, Sobiq Ittifoqning emirilishi katta hududni ishg'ol etgan. Imperiyadagi siyosiy o'zgarishlar aholi takror barpo bo'lishida katta o'zgarishlarni sodir etdi va mamlakatlar oldiga talay yangi muammolarini qo'ydi. Albatta, o'z davrida umumiy ko'rinishga ega bo'lgan aholining

takrorbarpo bo'lishidagi bu kabi tadqiqotlar o'z natijalariga ko'ra ham Markaziy Osiyodagi demografik jarayonlar o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda alohida hududlar demografik jarayonlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar doirasi kengayib bormoqda. Bunday tadqiqotlarga Buryatiyada o'tkazilgan hozirgi sharoitda mintaqada aholi takror barpo bo'lishini boshqarishga bag'ishlangan tadqiqotni, Yakutiya demografik vaziyatning statistik tahliliga oid tadqiqotlarni misol qilish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda demografik jarayonlar, hududiy xususiyatlari, ularga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni statistik tahlil etish metodologiyasi ishlab chiqilgan, demografik vaziyatdagi o'zgarishlarga baho berilgan.

Demografik jarayonlar mamlakatimiz aholisi turmush tarziga bevosita o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, mamlakatimizdagi demografik jarayonlar tarixi ham uzoq davrlar davomida Markaziy Osiyodagi qolaversa, butun Evrosiyodagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ldi.

O'zbekistonda aholi takror barpo bo'lish jarayonini alohida predmet sifatida o'rganish XX asrning 20-30 yillaridan boshlandi. Aholishunos olimlar A.A. Shoroxova, E.S. Timm, A. Xamitovalar O'zbekistonning Xorazm, Toshkent viloyatlari va Farg'ona vodiysi aholisining tug'ilish, o'lim va nikoh jarayonlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazganlar.

O'zbekistonda aholi takror barpo bo'lish jarayonini o'rganish XX asrning 60-yillaridan boshlab rivojlandi. Bu borada ustoz aholishunos olimlar M.K. Qoraxonov, I.R. Mullajonov, O. Otamirzaev, M. Bo'rievlar o'tkazgan tadqiqotlar ahamiyatlidir.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar aholi takror barpo bo'lish jarayonlarini tibbiy-demografik o'rganishga bag'ishlanadi. Bunday tadqiqotlarni demograflar tomonidan hozirgi davrda, ya'ni bozor munosabatlari shakllanishi davrida ham juda keng va mukammal olib borilmoqda.

O'zbekistonda demografik jarayonlarni statistik o'rganish borasida ham qator tadqiqotlar olib borilgan. F.Q. Kamilovanning tadqiqoti O'zbekistonning demografik imkoniyatini statistik o'rganish, o'tish davri sharoitlarida

iste'molchilar hayotiylik imkoniyatlarini ijtimoiy-demografik omillarini yanada to'liq qamrab olgan holda, aholi talablarini moddellashtirish va savdo hamda iste'mol mollari bozorning rivojlanishini prognoz qilishga uslubiy yondashishni hisobga olgan holda O'zbekiston iste'mol bozori shakllanishining tamoyillarini nazariy, uslubiy va amaliy ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib Respublikaning demografik holati va iste'mol muammolarini iqtisodiy-statistik o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ish hisoblanadi.

Aholi takror barpo bo'lishining iqtisodiy-statistik tahliliga bevosita bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlardan biri B.B. Usmonov tomonidan o'tkazilgan tadqiqot bo'lib, unda muallif O'zbekistonda shahar aholisining soni dinamikasi, yosh-jinsiy tarkibi, aholi takror barpo bo'lishining shahar hududidagi xususiyatlarini o'rgangan; respublikaning demografik rivojlanishida, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ahamiyatini tahlil etib, aholi takror barpo bo'lishining kelajakdagi jarayonini aniqlagan. Shuningdek, O'zbekistonda keyingi yillarda aholi takror barpo bo'lishi jarayonlarini uning hududlari bo'yicha sotsiologik-demografik, geografik tadqiq etish rivojlanib bormoqda. Bunga D.N. Egamovning O'zbekiston Respublikasi janubiy hududida "Osobennosti sotsialno-demograficheskogo razvitiya semi v Kashkadarinskom viloyate v usloviyax ro'nochnoy ekonomiki" deb nomlangan tadqiqoti, O.L. Abduraxmanovning "Aholi tabiiy harakatining hududiy tafovutlari (Samarqand viloyati misolida)" nomli tadqiqoti, G.A. Xodjaevaning "Geodemograficheskaya situatsiya i regulirovanie razvitiya naseleniya Karakalpakstana" nomli tadqiqotlarifikrimiz dalilidir.

Shunday qilib, aholini takror barpo bo'lishi statistikasini tadqiq etish XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab to bugunga qadar qator olimlar tomonidan rivojlantirildi. Ammo qayd etish lozimki, hozirgi kunda, O'zbekistonda yangi iqtisodiy sharoitda aholini takror barpo bo'lishi jarayonlariga bag'ishlangan tadqiqotlar etarli darajada emas. Kun sayin demografik jarayonlar o'zgarib borayotgan bir sharoitda chuqur statistik tahlil qilish, ularning istiqbollari belgilash jamiyat taraqqiyotini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vaxolanki, bu kabi ilmiy tadqiqotlar jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini yanada

mustahkamlashning, shuningdek aholini ish bilan bandligini ta'minlash kabi dolzarb masalalarning asosini tashkil etadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Qaysi asrlarda demografik bilimlar paydo bo'lishi uchun sharoit yaratildi?
2. "Rossiya xalqining saqlanib qolishi va ko'payishi" nomli asar muallifi kim?
3. O'zbekistonda aholi takror barpo bo'lish jarayonini o'rganish yuzasidan kimlar katta ilmiy izlanishlar olib borgan?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
2. Bo'rieva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
4. Ata-Mirzaev O.B. Narodonaselenie Uzbekistana. – T., 2009.
5. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – T., 2002.
6. Bo'rieva M.R., Tojiev Z.N. Aholi geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
7. Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
8. Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997.-157 b.
9. Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). – T., 2006.
10. Soliev A.S., Bo'rieva M.R va boshqalar. Qishloq joylar demografiyasi. – T., 2005. - 140 b.
11. Tojiev Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.
12. Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). –T.: 2009.